

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Biznes va tadbirkorlik oliy  
maktabi direktori o‘rinbosari**

**B. Xolbayev**



« »

**2026 y.**

**“TURIZM SOHASIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARIGA O‘QITISH”**  
(mavzusidagi qisqa muddatli o‘quv kursining)

**O‘QUV DASTURI**

**Toshkent – 2026**

**“Turizm sohasida tadbirkorlik ko’nikmalariga o’qitish”- mavzusidagi qisqa muddatli o’quv kursinig dasturi-12 bet**

**Tuzuvchilar:**

- Ashurova Sh.A. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Biznes kommunikatsiya va chet tillari kafedrası, dotsent
- Ishmuxamedov B.J. – Hududiy filiallar faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi boshlig’i o’rinbosari

**Taqrizchilar:**

- Suyunov D.X. – Biznesni boshqarish (MBA) kafedrası mudiri, i.f.d., professor
- Qodirov T.U. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, o’quv-uslubiy bo’limi boshlig’i

O’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Ilmiy Kengashi tomonidan ma’qullangan va o’quv jarayonida qo’llash uchun tavsiya etilgan.

(Oliy maktab Ilmiy Kengashining 2026-yil “16”yanvarda tasdiqlangan 2026/01-sonli bayonnomasi)

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 avgustdagi 340-son qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son qarori hamda “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022 yil 22 iyuldagi PQ-329-son qarori, shuningdek “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 21 dekabrda PF-269-son Farmoni mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda, xizmatlar sohasi, xususan turizmni jadal rivojlantirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish hamda aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni turizm yo‘nalishidagi biznes faoliyatiga keng jalb etish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son Farmoni hamda turizm infratuzilmasini kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazkur yo‘nalishda tizimli islohotlarning huquqiy asosini tashkil etadi.

Turizm xizmatlaridan samarali foydalanish orqali mamlakat iqtisodiy o‘rishini ta‘minlash, tovarlar va xizmatlarning jahon bozorlariga bosqichma-bosqich kirib borishini kuchaytirish mumkin. Shu bois, turizm yo‘nalishida malakali tadbirkorlarni tayyorlash, ularning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir.

Turizm sohasi mehmondo‘stlik, transport, ovqatlanish, ko‘ngilochar xizmatlar hamda madaniy meros obyektlari kabi ko‘plab tarmoqlarni qamrab olgan kompleks tizimdir. Ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun xizmat ko‘rsatish sifati, innovatsion yondashuv, marketing strategiyalarini to‘g‘ri qo‘llash va mijozlarga yo‘naltirilgan faoliyat muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan turizm yo‘nalishida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan, 40 akademik soatga mo‘ljallangan o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur tinglovchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallash imkonini beradi.

### **O‘quv dasturining maqsadi va vazifalari**

#### **O‘quv kursi: Turizm sohasida tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish**

Mazkur o‘quv kursi turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Kurs doirasida turizm infratuzilmasining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari, ilg‘or tajribalar, tahliliy jihatlari hamda bugungi kundagi muammolari o‘rganiladi. Shuningdek, turizmning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyati yoritilib, uning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni asoslab beriladi.

Alohida e'tibor xalqaro turizm bozorida mehmonxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, mehmonxona xizmatlari sifatini boshqarish, ularni standartlashtirish hamda yulduzlik toifalarini olish jarayonlarini takomillashtirish masalalariga qaratiladi.

Shu bilan birga, turizm sohasida tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xizmatlar ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar yoritiladi. Turoperatorlik faoliyatini tashkil etish, uning mohiyati va vazifalari, turistik marshrutlar, ekskursiyalar va maxsus tur paketlarini ishlab chiqish, milliy turizm mahsulotini xalqaro bozorda ilgari surish hamda turistlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish masalalari dastur doirasida keng qamrab olinadi.

### **O'quv kursi maqsadi**

Turizm sohasining mohiyatini ochib berish, O'zbekiston Respublikasida turizmga oid davlat siyosatining shakllanishi va uning jahon turizmidagi ahamiyatini yoritish, turizmning rivojlanish bosqichlari, ilg'or tajribalar, tahliliy jihatlari hamda mavjud muammolarini chuqur o'rganishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, mehmonxona xo'jaligining rivojlanishi, qo'shimcha xizmat turlari, xizmatlar sifatini boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba, mehmonxona xizmatlari bozori subyektlarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, talab va taklif asosida bozorni o'rganish hamda xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, turizmga gidlik xizmatlarini tashkil etish, turizm servisi korxonalarining xususiyatlarini o'rganish hamda turizm sohasida faoliyat yuritishda ilg'or xorijiy tajribadan foydalanish yo'llarini o'zlashtirish maqsad qilib qo'yiladi.

### **O'quv kursi vazifalari**

Tinglovchilarga amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy shart-sharoitlarni tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, bozor va raqobat muhitini baholash, ishbilarmonlik xavflarini hisobga olgan holda biznes faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Shu bilan birga:

- biznesni boshlash va rivojlantirishda marketing asoslari, bozor turlari, raqobat, reklama va sotuv strategiyalarini o'rgatish;
- jahon turizm tajribasining ilg'or namunalari o'rganish va amaliyotga tatbiq etish;
- turizm va turist tushunchalari, turizmning tashkiliy tuzilishi va asosiy kategoriyalarini o'zlashtirish;
- turistik industriya va unga bo'lgan talabni tahlil qilish;
- turizm infratuzilmasi, turizm turlari va ularning asosiy ko'rinishlari haqida bilim berish;

- turistik mahsulot va xizmatlar mohiyatini anglash hamda servis sifatini oshirish yo'llarini o'rgatish;
- turistik marshrutlar, jumladan maxsus marshrutlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish;
- turizmدا soliq, sug'urta va moliyaviy masalalar, narx va tovar siyosati bo'yicha nazariy bilimlar berish;
- mamlakatda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan biznes qarorlarini qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

### **Tinglovchilar toifasi**

Aholi, shu jumladan yoshlar va xotin-qizlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, nodavlat ta'lim tashkilotlari vakillari, shuningdek uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari hamda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar.

**O'qitish muddatli:** 5 kun

**O'quv yuklamasi:** 40 akademik soat

### **Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari**

Tinglovchilar tomonidan "Turizm sohasida tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish" o'quv kursini samarali o'zlashtirishda ilg'or va zamonaviy o'qitish uslublari hamda yangi axborot-pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o'qitishda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, taqdimotlar, multimedia mahsulotlari, elektron didaktik vositalar hamda internet materiallaridan keng foydalaniladi. Moslashtirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi.

### **Interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish uslublari:**

- interfaol ma'ruzalar (munozara tarzida);
- ishchi holatlarni (case) tahlil qilish;
- ishchan va rolli o'yinlar;
- keys-stadi usuli;
- psixologik va boshqa treninglar;
- "aqliy hujum", kichik guruhlarda ishlash orqali muammoli vaziyatlarni hal etish;
- kompaniyalarga amaliy tashriflar.

### **O'quv kursini talab darajasida tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik ta'minot:**

1. Auditoriyalarda kompyuter, ekran va proyektorlarning mavjudligi hamda ulardan taqdimot jarayonida samarali foydalanish.
2. Kompyuter sinflari yoki o'quv zallarida yetarli miqdorda kompyuterlar mavjud bo'lishi va ulardan darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarining elektron variantlaridan foydaanish imkoniyatining ta'minlanishi.

**“Turizm sohasida tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish” o‘quv kursining soatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

№	Modullarning nomlari	Umumiy ajratilgan soat	Mashg‘ulot turi:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Biznes asoslari va turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining mohiyati	2	2	
2.	O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasiga oid davlat siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari	2	2	
3.	Turizm resurslari: turlari, salohiyati va ulardan foydalanish mexanizmlari	2	2	
4.	Turizm turlari tasnifi va qishloq turizmini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari	2		2
5.	Ichki turizmni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari va mexanizmlari	2	2	
6.	Turizm infratuzilmasini rivojlantirish: zamonaviy yondashuvlar va investitsion omillar	2	2	
7.	Turizm tizimida transport, mehmonxona va ovqatlanish xo‘jaligining tashkiliy-iqtisodiy asoslari	2	2	
8.	Mehmonxona biznesi faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullari	4	2	2
9.	Turoperatorlik va turagentlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari	2	2	
10.	Turizm xizmatlari va turistik mahsulotlarni shakllantirish hamda boshqarish	2		2
11.	Turistik tashkilotlarda marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish	2	2	
12.	Turistik marshrutlarni tasniflash va ularni loyihalashning nazariy asoslari	2	2	
13.	Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish va investitsion mexanizmlar	2	2	
14.	Tadbirkorlik faoliyatida strategik rejalashtirish va biznes-reja ishlab chiqish metodologiyasi	4	4	
15.	Turizm xizmatlarini litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish tizimi	4	2	2
16.	Turizm sohasida muvaffaqiyatli tadbirkorlik amaliyoti: master-klass	2		2
17.	Test sinovi	2		2
	<b>Jami:</b>	<b>40</b>	<b>28</b>	<b>12</b>

## **O'quv kursi mashg'ulotlarining mazmuni**

**Mavzuning maqsadi** — Turizm, mehmonxona va restoran biznesi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, sayyohlik safarlarini samarali tashkil etish hamda O'zbekistonda ichki va tashqi turizm bozorini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Aholini turizm faoliyatiga keng jalb etish va mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Turizm sohasi yuqori daromad keltirishi, hududiy rivojlanishni jadallashtirishi va yangi ish o'rinlari yaratishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, sohani rivojlantirish zamonaviy infratuzilmani yaratish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish hamda marketing va bozor tahlilini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

**Mavzuni o'zlashtirish natijasida** guruhda shakllangan tinglovchilarning kompetensiyalari (bilish, ega bo'lish, egalik qilish)

### **Mavzuni o'zlashtirish natijasida tinglovchilarning kompetensiyalari**

#### **Biladi:**

- turizm sohasining mohiyati, rivojlanish tendensiyalari va uning iqtisodiyotdagi o'rnini;
- turizm, mehmonxona va restoran biznesining asosiy tushunchalari hamda faoliyat yo'nalishlarini;
- ichki va tashqi turizm bozorining xususiyatlari va geografik yo'nalishlarini;
- turizm infratuzilmasi, turistik mahsulot va xizmatlar mazmunini;
- turizm marketing, reklama va boshqaruv asoslarini;
- turizmni rivojlantirishga oid davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslarni.

#### **Ega bo'ladi (ko'nikmalar):**

- turizm sohasida biznes g'oya ishlab chiqish va uni tahlil qilish;
- turistik marshrutlar va sayohat dasturlarini tuzish;
- turizm bozorini, talab va taklifni tahlil qilish;
- mehmonxona va xizmat ko'rsatish sifatini baholash va boshqarish;
- marketing strategiyalarini ishlab chiqish va reklama vositalaridan samarali foydalanish;
- jamoada ishlash va mijozlar bilan samarali muloqot qilish.

#### **Egalik qiladi (amalda qo'llash kompetensiyalari):**

- turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish;
- turistik xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish hamda ularni bozorda ilgari surish;
- biznes-reja tuzish va uni amaliyotga joriy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish;
- turizm loyihalarini ishlab chiqish, rejalashtirish va samarali boshqarish;
- turizm faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni baholash va qarorlar qabul qilish.

## **Mavzularning qisqacha mazmuni:**

### **1-mavzu. Biznes asoslari va turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining mohiyati**

Ushbu mavzuda biznes va tadbirkorlik tushunchalarining nazariy asoslari hamda ularning turizm sohasidagi o'ziga xos jihatlari chuqur o'rganiladi. Turizm tadbirkorlik faoliyatining shakllari, rivojlanish bosqichlari va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion yondashuvlar, startap loyihalar va raqobat muhiti keng yoritiladi. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanadi. Risklarni boshqarish va samarali qaror qabul qilish usullari o'rganiladi. Turizm biznesini tashkil etishda strategik rejalashtirish asoslari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy biznes modellari va ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

### **2-mavzu. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga oid davlat siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari**

Mazkur mavzuda turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari chuqur tahlil qilinadi. Normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarining mazmuni o'rganiladi. Turizmni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari va investitsion rag'batlantirish choralari yoritiladi. Hududiy turizm dasturlari va klaster yondashuvi tahlil qilinadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari muhokama qilinadi. Turizm siyosatining xalqaro integratsiyadagi o'rni baholanadi. Shuningdek, barqaror turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ham ko'rib chiqiladi.

### **3-mavzu. Turizm resurslari: turlari, salohiyati va ulardan foydalanish mexanizmlari**

Turizm resurslari tushunchasi va ularning iqtisodiy mazmuni keng yoritiladi. Tabiiy, tarixiy-madaniy, rekreatsion va arxeologik resurslarning turizm rivojidagi roli tahlil qilinadi. Resurslardan oqilona va barqaror foydalanish tamoyillari o'rganiladi. Hududiy turizm salohiyatini baholash usullari ko'rib chiqiladi. Resurslarning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligi aniqlanadi. Ekologik muvozanatni saqlash masalalari muhim yo'nalish sifatida yoritiladi. Shuningdek, resurslardan foydalanishda innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi.

### **4-mavzu. Turizm turlari tasnifi va qishloq turizmini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari**

Turizmning zamonaviy va an'anaviy turlari tizimli ravishda o'rganiladi. Ekoturizm, madaniy, gastronomik, ekstremal va boshqa turizm yo'nalishlari tahlil qilinadi. Qishloq turizmining rivojlanish omillari va uning iqtisodiy ahamiyati chuqur o'rganiladi. Hududiy rivojlanishda turizmning roli asoslab beriladi. Mahalliy aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatiladi. Milliy an'ana va urf-odatlarini saqlashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, qishloq turizmini rivojlantirishda davlat va xususiy sektorning roli tahlil qilinadi.

## **5-mavzu. Ichki turizmni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari va mexanizmlari**

Ichki turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Mahalliy turistlarni jalb etish mexanizmlari va marketing usullari o‘rganiladi. Turistik xizmatlar narxini optimallashtirish va ularni ommalashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Hududlararo turizm oqimlarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Davlat dasturlari va tashabbuslarning roli tahlil qilinadi. Ichki turizm orqali yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari baholanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

## **6-mavzu. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish: zamonaviy yondashuvlar va investitsion omillar**

Turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari va ularning funksiyalari o‘rganiladi. Transport, aloqa, logistika va servis tizimlarining rivojlanishi tahlil qilinadi. Zamonaviy infratuzilmani yaratishda investitsiyalarning roli baholanadi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar misolida amaliy tajriba ko‘rib chiqiladi. Infratuzilmaning turizm samaradorligiga ta’siri ilmiy asosda izohlanadi. Raqamli infratuzilma va smart turizm tushunchalari yoritiladi. Shuningdek, infratuzilma rivojida hududiy tenglik masalalari ko‘rib chiqiladi.

## **7-mavzu. Turizm tizimida transport, mehmonxona va ovqatlanish xo‘jaligining tashkiliy-iqtisodiy asoslari**

Turizm tizimida transport xizmatlarining o‘rni va turlari batafsil o‘rganiladi. Mehmonxona xo‘jaligining tashkiliy tuzilishi va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi. Ovqatlanish xizmatlarining sifat darajasi va standartlari yoritiladi. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda zamonaviy yondashuvlar o‘rganiladi. Xizmatlar integratsiyasi va ularning o‘zaro bog‘liqligi tushuntiriladi. Xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish muhimligi ta’kidlanadi. Shuningdek, servis sifati va mijozlar qoniqishini oshirish usullari ko‘rib chiqiladi.

## **8-mavzu. Mehmonxona biznesi faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullari**

Mehmonxona biznesining boshqaruv tizimi va operatsion faoliyati chuqur o‘rganiladi. Xodimlar menejmenti va xizmat ko‘rsatish jarayonlari tahlil qilinadi. Servis sifati oshirish va mijozlar ehtiyojini qondirish usullari ko‘rib chiqiladi. Mehmonxona standartlari va sertifikatlashtirish jarayonlari yoritiladi. Raqobatbardoshlikni ta’minlash strategiyalari ishlab chiqiladi. Innovatsion texnologiyalar va raqamli tizimlarning roli muhokama qilinadi. Shuningdek, mehmonxona biznesida marketing va brending masalalari ham yoritiladi.

## **9-mavzu. Turoperatorlik va turagentlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Ushbu mavzuda turoperator va turagentlik faoliyatining nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur o‘rganiladi. Ularning vazifalari, funksiyalari va o‘zaro farqlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Turistik mahsulotni shakllantirish, paketlash va sotish jarayonlari bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi. Hamkorlik aloqalari, shartnomaviy

munosabatlar va xizmat ko'rsatish zanjiri yoritiladi. Bozor segmentatsiyasi va mijozlar bilan ishlash strategiyalari o'rganiladi. Xalqaro turizm bozorida ularning o'рни va ahamiyati baholanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish masalalari ham muhokama qilinadi.

### **10-mavzu. Turizm xizmatlari va turistik mahsulotlarni shakllantirish hamda boshqarish**

Mazkur mavzuda turistik mahsulot tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va shakllanish jarayoni batafsil o'rganiladi. Turistik xizmatlarning turlari, sifati va ularni boshqarish usullari tahlil qilinadi. Mijoz ehtiyojlariga mos xizmatlar yaratish tamoyillari ko'rib chiqiladi. Turistik mahsulotni ishlab chiqish va bozorda ilgari surish bosqichlari yoritiladi. Raqobatbardosh mahsulot yaratish strategiyalari muhokama qilinadi. Innovatsion xizmatlar va raqamli yechimlarning ahamiyati tushuntiriladi. Shuningdek, xizmatlar sifatini oshirish orqali mijozlar qoniqishini ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi.

### **11-mavzu. Turistik tashkilotlarda marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish**

Ushbu mavzuda turizm marketingining nazariy asoslari va amaliy vositalari chuqur o'rganiladi. Bozorni segmentatsiya qilish, maqsadli auditoriyani aniqlash va pozitsiyalash strategiyalari tahlil qilinadi. Reklama, PR va brending usullari keng yoritiladi. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalardan foydalanish yo'llari ko'rib chiqiladi. Marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bosqichlari tushuntiriladi. Samaradorlikni baholash mezonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turizmda mijozga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati ochib beriladi.

### **12-mavzu. Turistik marshrutlarni tasniflash va ularni loyihalashning nazariy asoslari**

Mazkur mavzuda turistik marshrutlar tushunchasi va ularning tasnifi tizimli ravishda o'rganiladi. Transport vositalariga ko'ra marshrutlar turlari tahlil qilinadi. Marshrutlarni tuzish, rejalashtirish va optimallashtirish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Tematik va maxsus marshrutlar ishlab chiqish masalalari yoritiladi. Turistlar xavfsizligi va qulayligi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Marshrutlarning iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida marshrutlarni boshqarish usullari ham o'rganiladi.

### **13-mavzu. Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish va investitsion mexanizmlar**

Ushbu mavzuda turizm biznesini moliyalashtirishning asosiy manbalari va mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Kreditlash, investitsiya, grant va subsidiyalar tizimi o'rganiladi. Moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish asoslari yoritiladi. Risklarni baholash va boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Investirlarni jalb qilish strategiyalari tahlil qilinadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tushuntiriladi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari muhokama qilinadi.

#### **14-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatida strategik rejalashtirish va biznes-reja ishlab chiqish metodologiyasi**

Mazkur mavzuda biznes-rejaning mohiyati, tuzilishi va ahamiyati keng yoritiladi. Strategik va operatsion rejalashtirish bosqichlari tahlil qilinadi. Moliyaviy prognozlash va iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari o'rganiladi. Amaliy biznes-reja ishlab chiqish ko'nikmalari shakllantiriladi. Loyiha risklarini aniqlash va ularni boshqarish masalalari ko'rib chiqiladi. Investorlar uchun taqdimot tayyorlash usullari yoritiladi. Shuningdek, biznes-rejani amaliyotga joriy etish mexanizmlari ham tahlil qilinadi.

#### **15-mavzu. Turizm xizmatlarini litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish tizimi**

Ushbu mavzuda turizm sohasida litsenziyalash tartibi va huquqiy asoslari o'rganiladi. Sertifikatlashtirish va standartlashtirish tizimlari tahlil qilinadi. Xizmatlar sifatini nazorat qilish mexanizmlari yoritiladi. Xalqaro standartlar va ularni joriy etish masalalari muhokama qilinadi. Turizm faoliyatida huquqiy talablar va majburiyatlar tushuntiriladi. Sifat menejmenti tizimining ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari ko'rib chiqiladi.

#### **16-mavzu. Turizm sohasida muvaffaqiyatli tadbirkorlik amaliyoti: master-klass**

Mazkur mavzuda amaliy tajriba asosida bilimlar beriladi. Muvaffaqiyatli tadbirkorlarning real faoliyati misolida tahlillar o'tkaziladi. Biznesni boshlash va rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Muammolar va ularning yechimlari muhokama qilinadi. Innovatsion g'oyalar va rivojlanish strategiyalari taqdim etiladi. Tinglovchilarda liderlik va tashabbuskorlik ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, real biznes muhitida qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

#### **17-mavzu. Yakuniy nazorat testi**

O'quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirib, yakuniy imtihon natijalariga ko'ra 71 va undan yuqori ball to'plagan bitiruvchilarga Oliy maktab tomonidan sertifikat taqdim etiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Holloway J.C., Humphreys C., Davidson R. The Business of Tourism. – London: Pearson Education Limited, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2000.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. 2016 yil 2 dekabr, PQ-2666-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2016 yil 2 dekabr, PF-4861-son.

### **Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. [www.unwto.org](http://www.unwto.org) – Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) rasmiy sayti.
4. <https://uzbektourism.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy sayti.
5. <https://www.standart.uz> – “O‘zstandart” agentligi rasmiy sayti.
6. <https://www.iso.org> – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) rasmiy sayti.